



1913-yil aprel oyidan chiqo boshlagan

Fidoyilik —  
Vatanga xizmat demak!



[www.zarnews.uz](http://www.zarnews.uz) <https://www.facebook.com/zarnews.uz> [@zarnews\\_uz](https://twitter.com/zarnews_uz) [https://twitter.com/zarnews\\_uz](https://twitter.com/zarnews_uz)



## KUN QAHRAMONI

Niderlandiyaning Veykan-Zee shahrida o'tayotgan "Tata Steel Chess-2023" turnirida hamyurtimiz, 18 yoshli Nodirbek Abdusattorov shaxmat qiroli, 32 yoshli Magnus Karlsen ustidan g'alaba qozondi.

Sizning farzandingiz, nabirangiz ham ana shunday natijaga erishishi mumkinligini bilasizmi? Unga e'tibor beryapsizmi, o'qishi, intilishlari bilan qiziqyapsizmi?

## SO'NGGI UMID HAM SO'NSA...



Xususiyashtirib bo'lmaydigan sohalar bor. Bu gapni aytasiz-u, undan-da, og'ir muammo qarshisida qolmaymizmi, degan ikkinchi bir hadik paydo bo'ladi — soha monopoliya qilib olinsa-chi?! Ammo...

Qishlooda yeshaydigan bir tanishim davolanish maqsadida shaharga kelgan edi.

- Hallo ko'p bo'madi, - dedi u. - Tumanimizdag'i shifoxonada davolanib chiqdim. Afsuski, biror nafni sezmadim. Hozir borsam, yana o'sha do'xtir, o'sha dorixonaga va bir qop doriga ro'para qilişadi. Yaxshisi biror xususiy klinikaga ko'rinish, degan niyatda kelgandim.

Davlat shifoxonesidan naf ko'magan tanishim bilan shahardagi xususiy klinikalardan biriga bordik. Bosh shifokorga uchrashtganimizda uch-to'rtta eshikka kirib, javoblar bilan oldiga kirishimizni aytdi. Bir nechta tekshiruvlardan so'ng uning qabuliga kirdik. Umumiy tavisyalalarini va ikkita varaqqa dorilar ro'yxatini yozib berdi. Bemorni tekshirish davomida o'zini anchu xotirjam tutgan shifokor dorilar ro'yxatini bemorning qo'liga tutqazar ekan, hukmrona ovozda: "Dorilarni birinchiga qavatdagi dorixonadan oling!", dedi.

Uning qapirish ohangidan biz ham hushyor tort-

dik. Pastga tushib, dorixonada qo'li-qo'liga tegmay savdo qilayotgan kishiga tutqazdk. Hayron qoladigan u qog'ozni qo'liga oldi-yu, ammo dorilar ro'yxatini oxirigacha ko'rimedi ham. Chaqqonlik bilan peshtashadagi dorilarni olib, xaitaga joylay boshladik.

Shosha-pisha uni to'xtatib qoldik.

- Aka, u兹, hozir tekshiruvlarga to'lov qildik, pulimiz kamroq edi. Avval bir hisoblab bering, necha pul bo'larkan? - dedim.

Uning hafsalasi pir bo'ldi. Betarqlik bilan dorilarning o'rtaча narxini chiqarib, ikki million so'mdan ortiqroq bo'lishini aytdi.

### Bugunning gapi

Biz bir-birimizga hayron tikildik. Nega buncha qimmat?

Unga yana bir marta uzrimizni aytib, dorixonadan chiqdik. Mashinaga o'tirib, oldimizdan chiqqan birinchiga dorixonaga kirib, sotuvchiga dorilar ro'yxatini berdi. U uzoq ko'z yogurtirib, bular ichida faqat ikkitasi bordingini aytди. Ro'yxatni olib, keyingi dorixonaga o'tdi, unda ham shu ahvol. Shu ko'chadagi tumaqator dorixonalarga bosh suqaverib holdan toydi. Oxiri shunga borib yetdi, shahardagi barcha dorixonalarga kirib chiqishga majbur bo'ldik. Yarini kun vaqtimiz dorixonalarda o'tdi. Ammo ro'yxatdagi dorilarning yarmi ham topilmadi. Uch-to'rttasidan jamlab olishning ham imkoniy yo'q edi. Shifokor eng zarur dorilar mana shular degan ikki-uchtasi hech bir dorixonadan topilmadi.

Orada qaysida dorixonada hali sohada tajribali bo'rninmagan bir yosh yigit bu dorilarni qaysi shifoxonada yozgan bo'lsa, o'sha yerdan topishimiz mumkinligini aytgan edi. Ro'yxatni qo'limizga tutayotgandagi do'xtirning gapi qulog'im ostida jaranglayverdi: "Dorilami birinchiga qavatdagi dorixonadan oling!".

Ertan bilan o'sha klinikaga bordik. Kechagi ro'yxatga qaramasdan dorilar to'plamini yig'ib beradi-gan sotuvchi o'tirgan edi. Hech narsa demasdan uning qo'liga ro'yxatni uzatdim. U bizga q olibona qaradi-yu, ro'yxatdagi dorilarni to'plashga tutindii. Eng qiziq'i, kechesun bo'yish shahardagi haybatli, ikki-uch qavatlari dorixonalardan topilmagan dorilar shu uchga-uch o'chamdagagi kichik bir xonadan topildi.

Tanishim dorilar solingan oppanchi qo'liga olib, biroz xotirjam bo'ldi. Ammo utunluy umidsiz edi.

Sulaymon MARDIYEV.

KUN  
HIKMATI

Birovlarga har qancha havas qilmang, agar ulardag'i ishtiyoq va qanoat Sizda bo'limasa, o'zingizdan ortiq bo'lomaysiz

2023-yil 21-yanvar, shanba,  
8 (23.729)-son

## HUDUDLAR TOIFALARGA AJRATILDI NIMALAR O'ZGARADI?

Prezidentimizning 2022-yil 30-dekabrda "Respublika hududlarini toifalarga ajratish va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlashning tabaqlashtirilgan tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni bilan respublikamizdagi 208 tuman va shahar besh toifaga bo'lindi. Bu avvalo, hududlarning iqtisodiy rivojlanishi, investitsiya jalb etish, tadbirkorlikni rag'batlantirish imkoniyatlaridan kelib chiqdi.



Viloyatimizdagi tuman va shaharlar toifalarga bo'linganda tadbirkorlik uchun har tomonloma rivojlangan hudud bo'lgan Samarqand shahri birinchini toifaga, infratuylmasi yaxshi bo'lgan Jomboy, Samarqand va Toyloq tumanlari ikkinchi toifaga

kirdi. Sharoti nisbatan qoniqarli bo'lgan Kattaqo'rg'on shahri, Bulung'ur, Ishtixon, Narpay, Oqdaryo, Past Darg'om va Urgut tumanlari uchinchini toifada qayd etildi. To'rtinchisi — jozibadorligi yetarli bo'limagan hududlar sifatida Kattaqo'rg'on, Nurobod,



Paxtachi va Payariq tumanlari qayd etildi. Viloyatning Qo'shrabot tumanigina beshinchini toifada sharoti og'ir bo'lgan hudud, deb topildi.

(Davomi 2-sahifada) >>>

### INDALLOSINI AYTGANDA...

Jabbor ESHONULOV,  
filologiya fanlari doktori,  
professor:

- Hazrat Navoiyning "Odami ertsang demagil odami, Onikim yo'q xalq q'amidin g'ami..." hikmatini rahbarlar ham, oddiy odamlar ham davralarda o'qishni, maqolalarda eslashni yaxshi ko'rishadi. Bu hikmatni xalq q'amidan uzoq bo'lganlar ham davralarda o'qib, olibish olishgan. Lekin hazrat bu hikmatni o'qib, shior qilib yurish uchun emas, amal qilish uchun, harakatda va hayotda shunday maqsad bilan yashash uchun yozgan. Har qanday hikmat amalda o'zini ko'rsatsa, u hikmat bo'ladi, yo'qsa, bu navbatdagi quruq so'zga aylanadi.



### Samarqandda ixtisoslashtirilgan taekvondo markazi ochiladi

Vazirlar Mahkamasining joriy yil 10-yanvardagi "O'zbekiston taekvondo akademiyasi Va ixtisoslashtirilgan taekvondo markazlari faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga muvofiq, O'zbekiston taekvondo (WT) assotsiatsiyasi tizimida O'zbekiston taekvondo akademiyasi hamda 2023-2024-yillarda hududlarda 14 ta ixtisoslashtirilgan taekvondo markazlari tashkil etiladi.

O'zbekiston taekvondo akademiyasining tashkil etilishi taekvondo (WT) bo'yicha milliy temra jamoalar (kattalar, yoshlar, o'smiralar, shuningdek, sport faxonyleri) a'zolarining ijsmoniy rivojlanishi, ijsmoniy tayyorgarg'ligi, funksional holati, texnik-taktiki va psixologik tayyorgarg'ligini oshirishga xizmat qiladi.



Shu bilan birga, akademiya taekvondo (WT) bo'yicha milliy temra jamoalami xalqaro musobaqalariga tayyorlashda ularga amaliy va ilmiy-metodik jihatdan ko'maklashish, taekvondo (WT) bo'yicha ilg or ta'ribalarini o'rnatish va mamlakatimizda joriy etishiga doir tavsiyalar ishlab chiqish, xoniyi mamlakatimning yetakchi muassasalarini bilan xalqaro aloqalarni rivojantirishga ko'maklashadi.

Akademiyasi joriy yilning 1-sentabridan faoliyat etiladi.

Qarorga muvofiq, Samarqandda ham ixtisoslashtirilgan taekvondo markazi tashkil etiladi va joriy yilning 1 fevraliga qadar viloyatda foydalilanilmayotgan bo'sh bino ixtisoslashtirilgan taekvondo markaziga vaqtinchalik foydalansh uchun bepul ajratiladi. Markazda hududi temra jamoasi a'zolarining respublika va xalqaro musobaqalarda ishlrik etishi uchun zarur bo'lgan mahorat va ko'nikmalarni rivojantirishini ta'minlash, sportchilar zaxirasini tayyorlash uchun zarur tashkiliy, o'quv-metodik, psixologik-pedagogik, tibbiy-biologik va moddiy-texnik sharoitlar yaratiladi.

Viloyatda taekvondo bo'yicha nodavlat sport ta'limi muassasalarini faoliyatini yo'la qo'yish maqsadida Samarqand shahrida "Nafosat" sport klubini qilingan. Shuningdek, taekvondo infratuylimasini kengaytirish maqsadida Samarqand shahridagi sportning yaxshi kurash turlariiga ixtisoslashtirilgan sport maktabi binosi taekvondo (WT) bazasiga aylantirilgan. Bu yerda viloyat temra jamoasining respublika kalendor rejasiga kiritilgan sport musobaqalari hamda o'quv-mash'ulot yig'ini lariga ishtiroy ta'minlanmoqda.

Hozirgi kunda viloyatning barcha tuman (shahar)larda 39 nafr murabbiy qo'l ostida 1850 nafr sportchi taekvondo bilan shug'ullanmoqda. Viloyat sportchilarini joriy yil respublika musobaqalarida 4 ta oltin, 4 ta kumush, 3 ta bronza, xalqaro musobaqalarda 5 ta oltin, 2 ta kumush, 3 ta bronza medalni o'lga kiritdi. Hozirda O'zbekiston temra jamoasining asosiy tarkibida 2 nafr, zaxira tarkibida 4 nafr sportchi maslah'ulotlarda qatnashmoqda.

Suxrob MASHRABOV, viloyat sportni rivojlantrish boshqarmasi bo'limi bosh mutaxassis.

# HUDUDLAR TOIFALARGA AJRATILDI NIMALAR O'ZGARADI?



(Davomi. Boshlanishi 1-sahifada).

– Hududlarning toifalarga bo'linishida eksportlarning tiflari hamda iqtisodiy ko'rsatkichilar, sohalari rivojlanishida viloyatdagi ulushi hamda aholi jon boshiga iqtisodiy ko'rsatkichilar to'g'ri kelishi tahillari e'tiboraga olin-gan, – deydi viloyat hokimligi axborot-tahsil guruhni rahbari S. Abrahamatov. – Endilida ularni rivojlanirish, tadbirkorlik sub'ektlarini qo'llab-quvvatlash, aholini ijtimoiy himoya qilishga alohida yondashuv bo'ldi. Jumladan, 2020-yil 1-yanvarga qadar soliq solishning tabaqalashtirilgan tartibi joriy etiladi. Ya'ni, beshinchi toifadagi Qo'shrabot tumanida ro'yxatdan o'tgan va shu hududda faoliyat yuritadigan tadbirkorlar (yirik soliq to'lovchilar, doimiy muassasa, budjet tashkiloti va davlat korxonasi, ustav jamg'armasi (kapitali)da davlat ulushi 30 foiz va undan ko'proq miqdorda bo'lgan yuridik shaxslar bundan mustasno) foyda soliq'i, aylanmadan olinadigan soliq va ijtimoiy soliqni 1 foiz miqdorida to'laydi. Shuningdek, yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq va yuridik shaxslardan olinadigan yer soliq'ini mazkur soliqlar bo'yicha hisoblangan summaning 1 foizi miqdoridagi soliq stavkasi qo'llanildi. Ushbu imtirof tufayli tumandagi 1349 nafar tadbirkor ixtiyorida 13,4 milliard so'm mablag'i qolmoqda va shuning hisobidan ular faoliyatini kengaytirish imkoniyati ega bo'ldi.

To'rtinchavi beshinchi toifadagi hududda ro'yxatdan o'tgan va shu yerda faoliyat yuritadigan yakka tartibdagi tadbirkorlar jismoniy shaxslardan olinadigan daromed soliq'ining qat'iy belgilangan summalarini to'lashdan ozod qilindi. Jumladan, Qo'shrabotdagi 715 nafar yakka tartibdagi tadbirkor qat'iy soliq to'lashdan ozod etilidi. Ular 2022-yilda 295 million so'm to'lagan va joriy yilda 324 million so'm to'lash kerak edi.

Jozibadorligi yetarli bo'lmagan hududlar sifatida to'rtinchavi qayd etilgan Kat-taqo'rg'on, Nurobob, Paxtachi va Payariq tumanlarida ro'yxatdan o'tgan va shu hududlarda faoliyat yuritadigan tadbirkorlik sub'ektlari (yirik soliq to'lovchilar, doimiy muassasa, budjet tashkiloti va davlat korxonasi, ustav jamg'armasi (kapitali)da davlat ulushi 30 foiz va undan ko'proq miqdorda bo'lgan yuridik shaxslar bundan mustasno) uchun aylanmadan olinadigan solinqing bazaviy soliq stavkasi 3 foiz etib belgilandi. Mazar-kor tumanlar bo'yicha Xalq deputatlari viloyat



(Davomi. Boshlanishi 1-sahifada).



## ISH YURITISH QONUN DOIRASIDAMI?

Viloyat adliya boshqarmasi tomonidan viloyatdagi mavjud texnikum, kollej, kasb-hunar va ixtisoslashtirilgan maktablarda "Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to'g'risida"gi Qonun, "Davlat organlarida, davlat muassasalarida va davlat ishtirokidagi tashkilotlar da jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash tartibi to'g'risida"gi namunaviy nizom hamda Mehnat kodeksi talablariga riyo etilishi yuzasidan o'rganish o'tkazildi.

Jumladan, Paxtachi tumanini peda-gogika kollejida jismoniy va yuridik shaxslarni qabul qilish biron bir xodimiga birkiritilmagan. Ularni qabul qilish uchun ham zarur xona yoki murojaatlari bilan ishlash yuzasidan alohida bo'linma tashkil etilmagan. Rahbariyat tomonidan jismoniy va yuridik shaxslarni qabul qilish jadvali esa tuzilmagan. Aslida

bunday ma'lumot muassasa binosining tashqi va ichki qismiga joylashtirilgan bo'lishi kerak. Murojaatlarni shakllari va turilari ajratgan holda hisobini yuritish amaliyoti mutlaqo mavjud emas. Murojaatlarni qayd etish daftarlari umuman yuritilmagan.

Jomboy tumanidagi 2-kasb-hunar maktabida xodimlarning mehnatini

muhofaza qilish ahvolini qonun talabari asosida, deb bo'lmaydi. Masalan, direktorning 2022-yil 5-yanvardagi "Vaqtincha vazifa yuklash haqidagi"gi 4-va sonli buyrug'i bilan xodim Y.G.ga vaqtincha vazifa yuklatishda xodimning roziliqi olinmagan. Ushbu holat muassasa direktorining mazkur sanadagi "Guruh rahbari tayinlash haqidagi" 4/1-k sonli buyrug'i da ham takrorlangan.

Bundan tashqari, Y.G. o'ziga yuklatilgan vazifa bilan tanishtirilmagan. Mehnat kodeksining 178-moddasiga asosan ham bir xodim o'ziga yuklatiladigan mehnat vazifalari doirasini bilan oldindan tanishtirishi lozim. Shuningdek, muassasa tomonidan bu kabi holatlar o'nga yaqin ana

### Adliya nazorati

shunday buyruqlarda ham takrorlangan. Ishchi guruh tomonidan viloyatdagi 70 dan ortiq muassasada o'rganish ishlari olib borilib. 0023 ta qonunbuzilish holati aniqlandi. Aniqlangan qonunbuzilishlar ning 2293 tasi murojaatlar bilan ishlash, 3431 tasi mehnat munosabatlari hamda 290 tasi boshqa sohalarga oid. Adliya organlari tomonidan mazkur qonunbuzilishlari yuzasidan vakolati organlarga 70 dan ortiq mamuriy taklif kiritildi.

Shuningdek, muassasalarda yuqorida qilnorma talablariga riyo qilish, mavjud qonunbuzilishlari barterat qilish va aniq chora-tadbirlar belgilash yuzasidan 34 ta taqdimma va xodimlarga to'lanishi lozim bo'lgan ustama haqlarini undirish yuzasidan sudsiga 9 ta da'vo arizalari kiritildi.

Viloyat adliya boshqarmasi jamoatchilik bilan aloqalar bo'limi.



## ORGANIK CHIQINDIDAN BIOGAZ OLINYAPTI

Maxsus uskunlarda organik moddalarni bijg'itish usuli bilan biogaz olish texnologiyasidan Xitoya biringchi bo'lib foydalaniyan. Hozirda mamlakatda milliy energoiste'molining 30 foizi biogaz hisobidan.

Bu qurilma juda sodda bo'lib, kam sonli qoramol va parrandaga ega bo'lgan har bir xonadon egasi uni o'matishi mumkin. Maydon jihatdan ko'p ioq engallamaydi, reaktor uchun ham ihozlar soni kam. Xitoya borib, ushbu tajribani o'rangan payariqlik tadbirkor Alijon Temirov aholi xonadonlarda qishloq sharoitida organik chiqindidan biogaz olishiga mo'ljalangan kichik hajmdagi biogaz qurilmlari o'matmoqda.

- Har bir qoramol chiqindisidan bir kun-

da 4,2 kub metrgacha biogaz olish mumkin, - deydi "UZBIOGAZ" MChJ rahbari Alijon Temirov. – Boshgacha aytganda, bitta qoramol chiqindisidan olinadigan kunlik biogaz qariyb 10 kilogramm yog'och-o'tin yoki 5 kilogramm ko'mir enerqiyasiga to'g'ri keladi. Shu bois Xitoya ko'p xonadonlarda biogaz qurilmasi o'matilgan. Bu usulni o'rganish maqsadida Xitoya bo'ldim va mutaxassislar bilan tajriba almashgach, biogaz qurilmalari ishlab chiqaruvchi sex

tashkil qildim. Dastlab Urgut tumanining Dehqonobod mahallasiда yashovchi Chingiz Barotov xonadonida kichik hajmdagi biogaz qurilmasini o'rnatgan edi. Ushbu qurilma orgali fuqaro xonadoni va mahalla hududidagi 150 o'rning mo'ljalangan bog'chaga biogaz yetkazib berilmoqda.

Hozirgi kunda tadbirkor tomonidan biogaz qurilmalari Urgutda Dehqonobod, Quyishiqliq, Sanchiqu, Payariqdagi Uymovut va Dehqonobod mahallalaridagi aholi xonadonlari o'matilgan.

- Mutaxassis tavsiysi bilan yetti oy oldin biogaz qurilmasini xonadonimizga o'rnatagan edi, - deydi Uymovut mahallasiда yashovchi Xudoiberdi Temirov. – Ikki bosh qoramol go'ngidan olinadigan gaz bilan ro'zg'orimizda ovqat pishyapti, choy qaynayapti va kerakli paytda uyimzini ham isityapmiz. Qolaversa, ortgan o'g'itni mahalla aholisiga sotyapmiz.

F.RO'ZIBOYEV.

## IMKONIYAT

Davlatimiz rahbari topshirig'iga ko'ra, viloyat Perinatal markazi qoshida Ayollar reproduktiv salomatligi markazi faoliyati yo'lg'a qo'yildi.

Ushbu markazda bepushtlikning oldini olish, genetik laboratoriyanı rivojlantirish, sun'iy homiladorlik yo'nalishlari bo'yicha xotin-qizlarga yuqori sifatli tibbiy xizmat ko'rsatish rejalashtirilgan.

## FIRIBGAR

SUDLANUVCHILAR KO'PAYDI, QO'SHMACHLIK KAMAYDI

Samarqand viloyat sudlari tomonidan 2022-yil davomida odil sudlovi amalga oshirish, qonun ustuvorligini ta'minlash, fuqarolarning huquq va erkinliklari hamda qonunyu manfaatlarini himoya qilish borasida muayyan ishlar amalga oshirildi.

O'tkazilgan navbatdagi matbuot anjumanida bu haoda aniq raqamlar aytildi.

Xususan, hisobot davrida viloyat, tuman va shahar jinoyat ishlari bo'yicha sudlari tomonidan 3918 nafar shaxsiga nisbatan 4700 ta jinoyat ishlari ko'rib tamomlangan. Shundan 3403 ta ish bo'yicha 4577 nafar shaxsiga nisbatan hukm chiqarildi. Tamomlangan ishlar soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan 797 taga yoki 10,9 foiziga ko'paygan.

- Ishlar soni ko'paygani biringchi navbatda aholining huquqiy savodxonligi oshib borayotgani bilan bevosita bog'liq, - deydi viloyat sudi raisi O.Hayitov. – O'tgan yili sudlar tomonidan ko'rilgan jinoyat ishlari bo'yicha 054 nafar shaxs sud zalidani qamoqdan ozod qilindi. Viloyat sudlarining barcha instansiylarida 10 ta jinoyat ishi bo'yicha 17 nafar shaxs oqlandi.

Bundan tashqari, 1190 ta jinoyat ishi tarafalarning yarashanliklari munosabati bilan tugatilib, 1271 nafar shaxs jinoyat bevgarbolikdan ozod qilindi.

Shu bilan birga, devlat tomonidan ko'rsatilgan insonorvarlikni to'g'ri tushunmay, belgilangan tartiblari buzganligi uchun 340 neft shaxsiga nisbetan tayinlangan jazolar og'irro'gi almashtirildi. Amaldagi tartiblari buzganligi uchun ozodizidagi cheklash jazosini o'tayotgan 219 nafar shaxsning jazosi ozodlikdan mahrum qilish jazosiga almashtirildi.

Qayd etilishicha, o'tgan yil davomida Jinoyat kodeksining 107-moddasasi (o'zeshtirish yoki rastrata yo'li bilan talon-toroj qilish) bilan sudsanganlar 2021-yilning shu davriga nisbatan 218 naftaro, JKnig 108-moddasasi (firibgar) bilan sudsanganlar 290 naftaro, JKnig 228-moddasasi (hujjalilar, shamtalar, muhrilar, blankalar tayyorlash, ularni qalbakilashtirish, sotish yoki ularidan foydalanan) bilan sudsanganlar 215 naftaro ko'paygan.

Shuningdek, conunga xilof ravishda chet elga chiqish yoki O'zbekiston Respublikasiga kirish, qo'shmachilik qilish yoki fohisashona saqlash, qasddan badanga o'rtaча o'ir va o'rtaча yengil shikast yetkazish bilan bog'liq ishlar bilan sudsanganlar soni kamaygan.

Matbuot anjumanida davomida viloyat ma'muriy sudi raisi T. Fayziyev, viloyat sudi raisining o'ribosari - jinoyat, fuqarolik va iqtisodiy sudov hay'atlari raislarining ham hisobotlari tilingandi. Ishtiroychilarni qiziqartirgan savollarga batarsil javoblar berildi.

# Norasmiy bandlik ulushi qisqartiriladi

2022-yil 30-avgustda Prezidentimizning "Norasmiy bandlik ulushini qisqartirish hamda mehnat resurslari balansini zamonaviy yondashuvlar asosida shakllantirish chora-tadbirleri to'g'risida"gi qarori qabul qilingandi.

Qarorga ko'ra, 2023-yil 1-yillardan yakka tartibdagagi tadbirkorlar bilan mehnat munosabatlardira bo'lgan jismoniy shaxslar uchun ijtimoiy soliq summasining eng kam miqdori oyiga bazaviy hisoblash miqdorining 50 foizidan yiliga bazaviy hisoblash miqdorining bir baravarigacha kamaytirishi (bunda savdo majmualari va bozorlarda faoliyat yuritayotgan yakka tartibdagagi tadbirkorlar bilan mehnat munosabatlardira bo'lgan jismoniy shaxslar mustasno) belgilangan.

Shuningdek, yakka tartibdagagi tadbirkorlarga murakkab bo'limagan umumiylar qurilish va qurilish-te'mirlash ishlari (beton quyish, bo'yoqchilik, suvoqchilik ishlari, q'ish va kafel terish, perforatsiya, duradgorlik, chilangarlik va boshqa umumiylar qurilish ishlari), shu jumladan, yuridik shaxslar uchun ham bajarishtiga ruxsat berilgan. Qurilish-pudrat tashkilotlari umumiylar qurilish ishlari uchun shartnomasida yakka tartibdagagi tadbirkorlarni jaib qilishi ham ko'zda tutilgan. Yakka tartibdagagi tadbirkorlarga umumiylar qurilish ishlari keng jaib qilinadi.

Uchish ishlari bejarish uchun besh nafar-gacha xodimni yollashga ruxsat etiladi. Umumiylar qurilish ishlari bejarish taoliyati bilan shug'ullanayotgan hamda kamida uch nafar xodimni yollagan yakka tartibdagagi tadbirkorlarga Bandlikka ko'maklashish davlat jamg'armasi mablag'i lari hisobidan mehnat qurilari va asbob-uskunalar sotib olishiga subsidiya ajratiladi. Subsidiya miqdori bitta xodim uchun bazaviy hisoblash miqdorining 15 barevaridan oshmasligi lozim.

Qurilish vazirligi qurilish-pudrat tashkilotlari o'rtaida umumiylar qurilish ishlari yakkta tartibdagagi tadbirkorlarni keng jaib qilish bo'yicha targ'ibot ishlari olib boradi. Yakka tartibdagagi tadbirkorlar respublikaning ijtimoiy va ishlash chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish, "Obod oqshoq", "Obod mahalla" das-turlari doirasida bajariladigan umumiylar qurilish ishlari keng jaib qilinadi.

**Viloyat qurilish nazorat inspeksiyasi axborot xizmati.**

## Soliq imtiyozlaridan xabardormisiz?



Yuridik shaxslarning soliq solin-maydigan yer uchastkalari jumlasiga quyidagi yerlar kiradi:

- madaniyat, ta'lir, sog'lioni saqlash va ijtimoiy ta'minot ob'yektlari egallagan yerlar;
- sport va jismoniy tarbiya-sog'jomlashtirish majmualari, o'quv-mashq bazalari va bolalar sog'jomlashtirish oromgoohlari egallagan yerlar;
- shahar elektr transporti yo'llari va metropoliten liniyalari, shu jumladan, jamaot transporti bekatvari va metro-politen stansiyalari hamda ulamining inshootlari egallagan yerlar;
- aholi punktlarining suv ta'minoti va kanalizatsiya inshootlari egallagan yerlar;
- magistral issiqlik trassalari, shu jumladan, nasos stansiyalari, issiq suv ta'minotining issiqlikni hisobga olish va nazorat qurilish asboblari, isitkichilar;
- qishloq xo'jaligi meqsadlari uchun yangi o'zlashtirilayotgan yerlar;
- melioratsiya ishlari amalga oshirilayotgan inayut;

Sirkulyatsiya nasoslarini hamda shunga o'xshash inshootlari egallagan yerlar;

- ihota o'mron daraxtzorlari egallagan yerlar;
- suvni tejajidan (tomchilik), yomg'ir latib, diskret va boshqa) sug'orish texnologiyalari joriy etilgan yerlar;
- qishloq xo'jaligi meqsadlari uchun yangi o'zlashtirilayotgan yerlar;
- melioratsiya ishlari amalga oshirilayotgan inayut sug'oriladigan

verlar;

- yangi barpo etilayotgan bog'lar, tokzorlar va tutozlar egallagan yerlar;
- ilmiy tashkilotlarning, oqishloq xo'jaligi va o'mron xo'jaligi sohasidagi ilmiy-tadqiqot tashkilotlari hamda o'quv yurtlariga qarashli tajriba, eksperimental va o'quv-tajriba xo'jaliklarining bevosita ilmiy hamda o'quv maqsadlari uchun toydalilanidigan qishloq xo'jaligi ahamiyatiga molik bo'lgan yerlar va o'mron fondining yerlari;

- qishloq joylanda joylashgan (bundan shaharlar va tumantaming markazlari mustasno) antenna-macha metall konstruktivlari egallagan yer uchastkalari.

Usbu soliq imtiyozlari belgilangan maqsadda bevosita toydalaniyotgan yer uchastkalariga nisbatan tatbiq etilmiydi.

**Viloyat davlat soliq boshqarmasi axborot xizmati ma'lumotlari asosida tayyorlandi.**

REKLAMA, E'LONLAR, BILDIRISHLAR / Gazetamiz haftada uch marta - seshanba, payshanba va shanba kunlari chop etiladi / Gazetada chop etilayotgan reklama va e'londar tezkor, samarali va hamyonbop / MUROJAAT UCHUN TELEFON: 66-233-91-56

# OGOH BO'LING, MAGISTRAL GAZ QUVURLARI!

**Magistral gaz quvurlarining muhofaza zonasida xavfsizlik choralarini ko'rish g'oyatda muhim. Viloyatimizning Narpay, Kattaqo'rg'on, Nurobod, Past Darg'om, Samarcand, Oqdaryo, Toyloq, Urgut, Jomboy, Bulung'ur tumanlari hamda Samarcand va Kattaqo'rg'on shaharlari hududi bo'ylab aholi punktlari va sanoat korxonalarini tabiiy gaz bilan ta'minlovchi, yuqori bosimga ega magistral gaz quvurlari yotqizilganligini hisobga olsak, masala kundek ravshan. Shu sababli hamyurtlarimizga murojaat qilmoqdamiz.**

Ekspluatatsiyaning normal sharoitini ta'milash va quvurlar buzilishiga (ularning har qanday o'tkazilishidan qat'iy nazar) yo'q o'ymaslik uchun "Magistral gaz quvurlarni himoya qoidasi"ga va O'zbekiston Respublikasi "Er kodeksi"ning 69-moddasiga asosan, muhofaza hudoji o'natalgan.

Magistral gaz quvurlari tarkibiga gaz quvurlari, gaqsimlash shoxobchalar, kran tun-gunlari, elektr kimyoiy himoyalash uskunalarini (EHZ), yuqori kuchlanishli elektr uzatish tarmoqlari (LEP), gaz quvurlari trassasi bo'ylab yotqizilgan yo'llar, gaz quvurlarini bildiruvchi va tanituvi belgilar kirdi.

Quvurlarning muhofaza zonasiga kiruvchi maydonlar yerdan foydaluvchilardan olib qo'yilmaydi, faqat mazkur maydonda magistral gaz quvurlarini muhofaza qilish qoidalari qat'iy riyoja etgan holda qishloq xo'jaligi yoki boshqa turdag'i ishlarni olib borish mumkin.

Kiruvchilarning muhofaza zonasiga kiruvchi maydonlar yerdan foydaluvchilardan olib qo'yilmaydi, faqat mazkur maydonda magistral gaz quvurlarini muhofaza qilish qoidalari qat'iy riyoja etgan holda qishloq xo'jaligi yoki boshqa turdag'i ishlarni olib borish mumkin.



### DA'VOLAR BO'LSA...

Samarcand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Aliyeva Lola Zoirovna notarial idorasida marhum Abibov Badixon Amirxonovichga (2021-yil 8-iyulda vatof etgan) tegishli mol-mulk uchun meroz ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merozxo'rlarning Aliyeva Lola Zoirovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil:** Samarcand shahri Mirzo Ulug'bek ko'chasi, 80-uy.

Samarcand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Jo'reyev Kamoliddin Muhiddinovich notarial idorasida marhum Usmonov Raximiga (2002-yil 28-fevralda vatof etgan) tegishli mol-mulk uchun meroz ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merozxo'rlarning Jo'reyev Kamoliddin Muhiddinovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil:** Samarcand shahri O'zbekiston ko'chasi, 35-uy.

Samarcand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Jo'reyev Kamoliddin Muhiddinovich notarial idorasida marhum Usmonov Dildosh Raximovichga (2022-yil 29-mayda vatof etgan) tegishli mol-mulk uchun meroz ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merozxo'rlarning Jo'reyev Kamoliddin Muhiddinovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil:** Samarcand shahri O'zbekiston ko'chasi, 35-uy.

Samarcand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Bahromova Feruza Zoirovna notarial idorasida marhum

Muhofaza zonasida quvurlarning me'yordi ishlashiga xalaqtir beruvchi yoki ularga shikast yetkazuvchi har qanday turdag'i ishlarni bajarish taqiqlanadi. Xususan:

- har qanday qurilish ishlarni olib borish, doimiy va vaqtinchalik imoratlar qurish;

- har xil turdag'i daraxt va butalarni ekish, yem-hashak, ozuqa, o'g'it va materiallarni to'plash, pichan g'amlash, chorva mollarini saglash va suv ichadigan hovuzlar qurish, baliq yetishirish uchun uchastkalar ajratish va baliq hamda boshqa suvda yashovchi va suzuvchi hayvonlarni parvarishlash;

- quruv yo'nalishi ustidan o'tish va kesib o'tish yo'llarini qurish, traktor va boshqa og'ir mexanizmlar uchun turarjoylar barpo etish, ja-moat bog'larini va polizlarni tashkillashtirish;

- turli xil qurilish-montaj, portlatish va burg'ulash ishlarni amalga oshirish, tuproqni surish va tekislash;

- melioratsiya ishlarni bajarish, sug'orish va suv qochirish kanal-larni qurish, chuqur-lashshtirish;

- nazorat-o'ichov quduqlari, nazorat-o'ichov punktlari, bildi-ruchchi va ogholantiruvchi belgilarni buzish, joylarini o'zgartirish;

- kabel aloqasi xizmat ko'satilaydashgan kuchaytiruvchi punktlarning qopqoqlarini, kimyoiy himoyalash stansiyasi va boshqa uskunalar atrofi-



ga o'matilgan sim to'siqlarni ochish va ichiga kirish, kranlar, zulfinlar va jo'mraklarni ochish yoki yopish, aloqa vositalari va energiya ta'minoti uskunalarini o'chirish va yogish;

- belgilangan hududda turli xil chiqindilarni yig'ish, yerga ishqorlar, tuzlar, kislota eritmalari to'kish;

- har xil qurilish-montaj, portlatish va burg'ulash ishlarni amalga oshirish, tuproqni surish va tekislash;

- himoya hududlarida sun'iy havzalar va sholi ekinlari ekish.

Magistral gaz quvurlarini himoya qilish qoidalarining buzilishida aybdor mansabdar shaxslar va fuqarolar O'zbekiston Respublikasi qon-chiliga ko'ra javobgarlikka tortiladi.

Magistral gaz quvurlari bo'ylab xavfsizlik yer uchastkasi ko'rinishida, quruv o'qining har ikki tomoniga 50 metrgacha masofada shartli chiziqlar bilan chegaralangan bo'ladi.

Qishloq xo'jaligiga taalluqi yerlardan himoya maydoni magistral gaz quvurlarining o'qidan har ikki tarafa - 350 metr;

- 1000 mm.dan 1200 mm.gacha bo'lgan magistral gaz quvurlarining muhofaza hududi quruv o'qidan har ikki tarafa - 300 metr;

- 800 mm.dan 1000 mm.gacha bo'lgan magistral gaz quvurlarining muhofaza hududi quruv o'qidan har ikki tarafa - 250 metr;

- 600 mm.dan 800 mm.gacha bo'lgan magistral gaz quvurlarining muhofaza hududi quruv o'qidan har ikki tarafa - 200 metr;

- 300 mm.dan 600 mm.gacha bo'lgan magistral gaz quvurlarining muhofaza hududi quruv o'qidan har ikki tarafa - 150 metr;

- 300 mm va undan kichik bo'lgan magistral gaz quvurlarining muhofaza hududi quruv o'qidan har ikki tarafa 100 metr va gaz taq-

maydoni chegarasida har tomoniga 50 metrдан tutashgan chiziq bilan chegaralangan uchastka ko'rinishida bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasida "Qurilish me'yori va qoidalar" (OMQ 2.05.06-97) me'yoriy hujjat asosida magistral gaz tarmoqlari afrodisia quvurlar diametriga mos holda muhofaza hududlari belgilangan.

**Unga ko'ra, diametri:**

- 1200 mm.dan 1400 mm.gacha bo'lgan magistral gaz quvurlarining muhofaza hududi quruv o'qidan har ikki tarafa - 350 metr;

- 1000 mm.dan 1200 mm.gacha bo'lgan magistral gaz quvurlarining muhofaza hududi quruv o'qidan har ikki tarafa - 300 metr;

- 800 mm.dan 1000 mm.gacha bo'lgan magistral gaz quvurlarining muhofaza hududi quruv o'qidan har ikki tarafa - 250 metr;

- 600 mm.dan 800 mm.gacha bo'lgan magistral gaz quvurlarining muhofaza hududi quruv o'qidan har ikki tarafa - 200 metr;

- 300 mm.dan 600 mm.gacha bo'lgan magistral gaz quvurlarining muhofaza hududi quruv o'qidan har ikki tarafa - 150 metr;

- 300 mm va undan kichik bo'lgan magistral gaz quvurlarining muhofaza hududi quruv o'qidan har ikki tarafa 100 metr va gaz taq-



simlash shoxobchalarini har tomonidan himoya hududi (muhofaza hududida har qanday ishlarni olib borish taqiqilangan) 100 metr.

Shu bilan birgalikda aholi e'tiborini quyidagilarga qaratmoqchimiz. Davlatimizda olib borilayotgan insonparvarlik siyosatiga ko'ra, aholi tomonidan tegishli mahalliy holimiyatlar ruxsatzidan avaldan quril, hozirda aholi istiqomat qilib kelayotgan ayrim uy-joyer ham tegishli hujjatlar orqali egallari mulk sifatida rasmiylashtiril berilmoqda. Lekin, magistral gaz quvurlarining xavfli hududida, boshqacha aytganda, "Ozil hudud" ichida qurilgan noqonuniy imoratlar uchun bu yengilliklar tatbiq etilmaydi va bunday imoratlar buzilishi kerak bo'ladi.

Agarda hamyurtlarimizning yer uchastkasi yoki deng'onchilik qilayotgan maydoni magistral gaz quvurlari yaqinida joylashgan bo'lsa, biron turdag'i qurilish ishlarni boshlashdan oldin, shu gaz quvuriga xizmat ko'satuvchi boshqarmaga murojaat qilib ish ko'rish tavisya etiladi. Shunday holda fuqarolar o'zboshimchalik bilan qurilgan noqonuniy imoratni buzilishi bilan bog'liq ortiqcha asabzuarlik va keraksiz moddiy chiqimlarдан holi bo'lishi.

**Tashkilot manzili:**  
Samarqand tumanı Gulobod maskani,  
Gazchilar qo'rg'oni.  
**Telefonlar:** +99800-612-56-01,  
612-53-04, +99899-022-77-12.

**O'ktamxon TUROPOV,**  
Samarqand magistral gaz quvurlari boshqarmasi boshlig'i.  
**Iskandar SHUKUROV,**  
sanoat xavfsizligi

Shoyim BO'TAYEV:

# "O'z nafsiga qul hamisha quldir"

Shoyim Bo'tayev 1959-yil 20-iyunda Tojikistonning O'rnatma tumaniga qarashli Maydoncha qishlog'ida tug'ilgan. Xo'jand davlat pedagogika institutining tarix-filologiya fakultetini tugatgan (1982). Ilk qissasi — "Siri yulduzlar". Shundan so'ng yozuvchining "Dunyoning sarhisobi bor" (1988), "Endi bari boshqacha" (1990), "Shamol o'yini" (1995), "Kunbotardagi bog'" (1997), "Hayot" (2000), "Ko'chada qolgan ovoz" (2005) kabi qissa va hikoyalardan iborat to'plamlari nashr etilgan. "Qo'rg'onlangan oy" (1996), "Shox" (2007) kabi romanlar muallifi. "Do'stlik" ordeni bilan taqdirlangan (2001).

- Sizning "Shox" romaningiz juda mashhur. Asarning yozilish tarixiga to'xtalsangiz...

- Shox haqida qomusiy asarlarda o'qigandim. "Odamzod olmidan ko're hayonot o'lamiya yaqin yurishni" yoqtiradigan O'rozboy Abdurahmonov bilan suhbatiyalaridan birida tasodifan shu mavzuda so'z ochilib goldi-yu, u kishining haqiqatan ham tabiat ixosmanidi ekaniga ishonch nosil qildim. O'rozboy og'a Shohruh Mirzoga ehtirom ramzi sifatida Xitoydan yuborilgan qimmatbaho toshlaru matolar orasida shox ham nima uchun peshkash qilinganini, Gorbachev va Yeltsin islohotlaridan so'ng bo'lini ketgan Markaziy Osiyo respublikalari chegaralarida paydo bo'lgan simto siqlari avtomatlarning sayo'qlari migratsiyasiga salbiy ta'sirini so'zlari berdi. Qarangki, xalqlar ko'ksida faxru ittixor uyo'gtan bunday hurlikdan hayonotu nabotot azyiat chekar ekan. Barchaning birdeq haqi bo'lgan ona zamindan qum-qushlari parranda-darrandalardan o'z chegaralarini ming-ming yillar davomida belgilab olishgani holda, ayrim to'dalar ixtiyori bilan ularni o'zgartiravermas ekan. Xullas, gap ko'ekan bo mavzuda. "Shuni yozmaysizmi?", dedim O'rozboy og'a.

- Men hozir Orol bilan bandman, inim, - dedi O'rozboy og'a odatdag'i saxovatpeshalik bilan. - Sizga berdim shu syujetni, eploimasangiz o'zim kirishaman.

Epladim shekili, O'rozboy og'a jimb ketdi. Yo'q, judayam emas. "Hayot" gazetasida shox haqida juda qiziqarli bir maqola e'lon qildi. Mening asarimga kimmay qolgan narsalar o'sha maqolada bor. Bu asar bilan O'rozboy og'aning maqolasini bir muqova ostida chiqaramagan degan azamat noshir topilsa, shu kitobni to'liq holda deb qabul qilsa bo'ledi.

- Mazkur roman "Darakhchi" gazetasida chop etilgach, uning adadi ancha ko'tarilib ketgani rostmi?

- Ha, shunaqa. "Shox"ni "Darakhchi" gazetasida ikki yil muttasil berib bordi. Gazeta adadi ikki yuz minoga chiqib ketdi. Tahririyatga va o'zinga tinimsiz qo'ng'iroqlar bo'lardi. "Shox"ni topib berenglar, deb ittimos qiluvchilarning ideoloqlari

## Indoneziyadagi samarqandlik to'qqiz avliyo

Dunyoda eng ko'p musulmonlar yashaydigan mamlakat Indoneziya hisoblanadi. Arab Xalifaligi davrida islamni yoyish mabsadida fath etilgan yurtlar ko'p bo'lsa-da, ular Sharqiy Osiyo mamlakatlarigacha yetib bormagan edi. Xo'sh, unda bu yurtlar da islam dinining keng yoyilishi va chuquq ildiz otishida qanday omillar muhim rol o'ynadi?

Islam dinining yurtlariga kirib kelishi ni indoneziyaliklar "Vali Sango" (to'qqiz avliyo) nomli jamiyatning faoliyati bilan bog'lashadi. Shu o'rinda buning biz faxilanadigan bir muhim jihatini ta'kidlash lozim. Gap shundaki, ushbu jamiyatning asoschisi Mavilono Malik Ibrohim Samarganiydir. Indoneziyalik tadqiqotchilarning fikricha Yava oroliga 1404-yilda Samargandan kelgan. Malik Ibrohim tashki etgan "Vali Sango" jamiyatining to'qqiz a'zosidan besh naftari Ibrohim Samarganiydir, qolgan uch naftari uning ukasi Mavilono Ishogning avlodlari va to'qqizinchisi qarindoshlaridan biri bo'lgan.

Ma'lumotlarga qaraganda ushbu aksa-ukaning otasi Shayx Burhoniddin Soq'arjii avlodlaridan bo'lgan Shayx Jo'madul Kubro ikki o'g'li bilan Yava

oroliga kelib qo'nim topgan. Ko'p o'tmay to'ng ich o'g'li Mavilono Malik Ibrohim Champa qirolligi (hozirgi Vietnam)ga islam dinini keng targib qilish uchun ketadi. U keyinchalik yana Indoneziyaga qaytdi va shu yerda faoliyatini davom ettiradi. Malik Ibrohim bu yerdagi "Vali Sango" (to'qqiz avliyo) jamiyatiga asos soladi. Undan so'ng avlodlari bu ishni davom ettirib, Sharqiy Osiyo islam dinining mustahkam o'rinnegallashiha salmoqli ishlarni amalga oshiradi.

Ta'kidlash lozimki, bugungacha ushbu qimmatli ma'lumotlar tarqoq, faqatgina indoneziyalik ba'zi tarixchilarning umumiy tadqiqotlarida uchrash edi. Tadqiqotchi olimlar Komikxon Kartayev va Gulnoza Kattayevanining izlanishlari natijasida yaqinda alloma va uning avlodlari



faqatagi ma'lumotlar tadqiq etilgan va jamlangan risola chop etildi.

"Shayx as-Sog'arjii avlodlari va Ibrohim as-Samarqandiy tarixi" nomli monografik risolada Shayx Burhoniddin Soq'arjii va u zotning avlodlari Sharq mamlakatlari islam dini va tasavvuf ta'limotini tarqatishdagi faoliyat bayon etilgan. Shuningdek, kitobdan Samarqand zaminining bizgacha yetib kelgan eng qadimiy obidalaridan biri Ruhobod maqbarasi haqida qimmatli ma'lumotlar o'rinn olgan.

Sulaymon MARDIYEV.

## Faqat sen qol

Muhabbatlar o'tar, oshiglar o'tar,  
Qayg'uli, qayg'usiz qo'shiglar o'tar.  
Hammasi ketsa ham ahididan tonib,  
Faqat sen qol so'zim, olovdekk yonib!

Davralar o'tadi, suhbatlar o'tar,  
Qadrli, qadrtsiz ulfatlar o'tar.  
Hammasi o'tsa ham bedard, bequronch,  
Faqat sen yashab gol dunyoda, ishonch!

Daraxtlar o'tadi, shamollar o'tar,  
Goh xira, goh yorug' xayollar o'tar.  
Hammasi ketsa ham taclanib, qat-qat,  
Faqat sen yashashing lozim, adolat!

Ne-ne davron, ne-ne nishonlar o'tar,  
Olingan, berilgan inkonlar o'tar.  
Hammasi o'tsa ham ovoza solib,  
Ezgulik, yashagin abadiy golib!



Jumagul SUVONOVA.

## SHU OYDA TAVALLUD TOPGANLAR

### 21-YANVAR

Shuxrat ABDUMALIKOV – 1970-yilda Samarqand shahrida tug'ilgan. Teatr rassomi. O'zbekiston Respublikasi de xizmat ko'rsatgan san'at arbobi.

### 27-YANVAR

Islam ZOKIROV – (1928-2000) Samarqand shahrida tug'ilgan. Akusher-ginekolog. O'zbekiston Fanlar akademiyasining akademigi.

Burxon ISLOMOV – (1938-2021) Payariq tumanida tug'ilgan. Dramaturg. Teatrshunos.

Gazeta "Zarafshon" tahririyatining kompyuter bo'limida sahifalandi.

«Noshir lux» MCHJ bosmaxxohasida chop etildi. Korkona manzili: Samarqand shahri, Sipatmen ko'chesi, 270-uy.

Sahifaga topshirish vaqti:  
so'z 18:30 da.  
Sahifaga topshirildi:  
so'z 19:00

Navbatchi muharrir:

G.HASANOV.

Navbatchi:

T.SIDDIQOV.

Sahifalovchi:

B.ABDULLAYEV.

ISSN-201667X



Saytimiza o'tish uchun QR-kodini telefoniga orqali skener qiling  
Sotuvda nemi keltirilgan holida

## O'UVCHILARGA TESKARI BAHO OO'YILADIGAN MAORIFCHILAR MAMLAKATI

Avtstriya mamlakatida maktabda o'quvchilarga baho qo'yish tizimida qiziq an'anaviy odat mavjud.

Bolalarga dars jareyonida baholash bizdagidek emas, ya'ni aksincha baholanadi.

Eng a'lo o'quvchiga "1" baho qo'yiladi. Yaxshi deb baholanadigan o'quvchiga "2" baho beradi. O'rta baho - "3", yomon baholar "4" va "5" bahodir. Buning tushunishimiz bu baholash Olimpiada o'yinlarida olgan o'rinni eslatadi. Yuqori o'rinni olgan sportchilar birinchi va ikkinchi deb taqdirlanadi.

Nima ham deymiz. Har bir mamlakatning o'z uslubi, qonun-qoidasi bor.

Fayzulla ISMOILOV.

## MUZLIKLARNING YARMI ASR OXIRIGA KELIB ERIB KETADI

Yer yuzidagi o'rtacha harorat oshishini selsiy bo'yicha 1,5 gradusga kamaytirishga erishilsa ham, asr oxiriga kelib dunyo muzliklarning yarmi yo'q bo'lib ketadi. Bu haqda Science ilmiy jurnalida chop etilgan maqolada aytildi.

Tadqiqotchilarning hisob-kitoblariga ko'ra, agar global o'rta harorat hozirgi sur'atlarda o'sishda davom etsa, asr oxiriga kelib muzliklarning uchdan ikki qisimi erib ketadi.

Bir kvadrat kilometrdan kam bo'lgan muzliklar Markaziy Evropa, G'arbliy Kanada va AQShda joylashgan bo'lib, ularladi o'zgarishlar allaqachon ko'zga tashlanmoqda. Alp muzliklarning chekinishi bir necha o'n yillardan buyon davom etmoqda va tezlashmoqda.

Muzliklarning erishi qutb qopqoqlarining erishi bilan birga global isishning eng xavfli oqibatlaridan bire - dengiz sathining ko'tarishiga olib keladi.

Butun dunyo bo'yib muhim qirg' oqbo'y ihudilar, shuningdek, bir qator orol shittalar suv ostida qoladi.

Kelajakda dengiz sathni ko'tarishining kaliti bo'lgan Alyaska, Kanada Arktikasi yoki Antarktida yirik muzliklarning ommaviy yo'qilishini harorat oshishining oldini olish orqali hali ham to'xtatish mumkin.

- Arktikada sodir bo'ladigan hamma narsa ertami-kechmi sizning uyingizda ob-havoja te'sir qiladi, - deb ogohnitarlari Institutu tadqiqot guruhi rahbari Izabel Shuls. - Arktika atmosferasini o'rganish qutb mintaqasi nima uchun sayyoramizning oqigan qismiga nisbatan qarib uch barobar tezroq isiyotganini tushunishga olinlarga yordam beradi. "Meteorologik zondlar atmosfera va Yevropaga potensial harakatlanshi mumkin bo'lgan turli hevo massalari haqida ma'lumot beradi.

**QURBONLAR - HAYVONLAR VA QUSHLAR**  
Yugor Arktikaning qo'l urilmagan landshaftlari hududiga shamol va dengiz oqimlari dunyoning turli burchaklaridan bo'lib kimyoviy modda, zaharli chiqindilarni olib kelmoqda.  
Fransiya ilmiy tadqiqot markazidagi Olive Shastel jamoasi ushbu sanoat chiqindilarning qushlar koloniyasiga oqanday ta'sir qilishini tekshirdi. Bunda tashqi muhitni iflosantiruvchi yangi modda - idish-tovoy quvish vositalari, yong'inga qarshi ko'pik, suv o'tkazmaydigan kiyimlarda mavjud perftori birikmalarning salbiy ta'siri aniqlandi. Yuqori darajali zaharli moddalar kit va tyullenlarda ham topilgan.

Euronews.com materiali asosida Gulnora XOLDOROVA tayyorladi.

**MUASSIS:** Samarqand viloyati hokimligi

**Bosh muharrir:** Farmon TOSHEV

Gazeta O'zbekiston matbuot va axborot agentligining Samarqand Viloyat boshqarmasida 2012-yil 30-martda 09-01 raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr 100. Indeks 438, 16 586 nusxasi chop etildi. Buyurtma 37. Hajmi 2 bosma taboq, bichimi A-2

Gazeta haftaning sechsanba, payshanba va shanba kunlari chiqadi.

**QABULXONA:** (66) 293-91-51, **REKLAMA VA E'LONLAR:** (66) 293-91-56

**BO'LIBMLAR:** (66) 293-91-57, 293-91-58, 293-91-59, 293-91-61

**MANZILIMIZ:** 140100, Samarqand shahri, Ulug' Tursunov ko'chesi, 80-uy, Matbuot uyi.

**MATBUOT UYI**

Zarafshon

C AMARKANDSKII  
B ECHNIK